

QISQA RAQAMLARDAN FOYDALANGAN HOLDA XIZMATLAR KO'RSATISH QOIDALARI

Qisqa raqamlardan foydalangan holda xizmatlar ko'rsatishning mazkur qoidolari (keyingi o'rinlarda "Qoidalar" deb yuritiladi) Humans MCHJ (keyingi o'rinlarda "Humans" deb yuritiladi), manzil: O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent sh., Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'ch., 2-b uy, ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami 749733, STIR 306 624 856, telefon: 1234, tomonidan nomuayyan shaxslar doirasiga yo'naltirilgan ommaviy oferta hisoblanib, Mijoz ularni quyida keltirilgan tartibda qabul qilgan vaqtdan boshlab Mijoz va Humans (Provayder) o'rtasidagi kelishuvga aylanadi.

Atamalar va Ta'riflar

Xizmatga buyurtma berish – Mijoz tomonidan Xizmatni ulash maqsadida amalga oshirilgan ushbu Qoidalarining 1-bo'limida ko'zda tutilgan harakatlar.

Interfeyslar – Kontentga buyurtma berish uchun foydalaniladigan Kontent-Provayder va/yoki Humans'ning mablag'lari, jumladan turli xil internet-saytlar, mobil ilovalar, interfeyslar va Mijoz qurilmasidan jo'natiladigan buyruqlar.

Mijoz — Provayder bilan aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzgan va ushbu shartnoma asosida unga abonent raqami ajratilgan jismoniy shaxs (fuqaro).

Mijoz qurilmasi — Mijozga Provayderning aloqa xizmatlaridan foydalanish imkonini taqdim etish uchun foydalaniladigan foydalanuvchi (oxirgi) uskunasi.

Kontent - axborot-ma'lumot, ko'ngilochar, o'qitish-bilim berish yoki boshqa turdagi axborot, shuningdek Kontent-Provayderlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar.

Kontent-Provayder – qisqa raqamlardan foydalangan holda Kontent yoki Kontent-Provayderning resurslaridan foydalanish uchun trafik bilan ta'minlash orqali Humans aloqa tarmog'idan foydalangan holda Kontent taqdim etishni tashkil qiluvchi shaxs.

Qisqa raqam – Kontent-Provayder tomonidan foydalaniladigan maxsus servis raqamidan tashkil topgan raqamli identifikator.

Shaxsiy hisobvaraq — Shartnoma bo'yicha Provayder xizmatlari uchun pul mablag'larini hisobga o'tkazish, yechish hamda qolgan mablag'lar haqida ma'lumotni aks ettirish uchun mo'ljallangan Provayderning avtomatlashtirilgan hisob-kitob tizimidagi tahliliy hisob registri.

Qisqa raqamlardan foydalanish xizmati (Xizmat) — Kontent-Provayder tomonidan taqdim etiladigan va shu jumladan Kontentni Mijozgacha yetkazib berish, shuningdek Mijoz qurilmasi yordamida Kontent taqdim etishni so'rash imkoniyatini taqdim etishdan iborat bo'lgan Kontentdan foydalanish imkonini berish, shuningdek Mijoz qurilmasi yordamida Kontent taqdim etish so'rovini taqdim etish bo'yicha Humans xizmati.

Mazkur Qoidalarda ishlatiladigan boshqa atamalar "HUMANS" MCHJ aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlarida (Shartnomada) keltirilgan mazmunlarda qo'llaniladi.

1. Xizmatlarni ulash

- 1.1. Xizmatni ulash uchun Mijoz Interfeysdan foydalangan holda va Kontent-Provayderlar yoki Operator tomonidan Interfeyslarda belgilangan shartlarga muvofiq Kontentni qo'lga kiritishga qaratilgan harakatlarni bajarishi (masalan, Qisqa raqamga chiqish qo'ng'irog'ini amalga oshirishi, chiqish SMS-xabarini jo'natishi, Kontent-Provayderning ofertasini qabul qilishi va h.k.) kerak.
- 1.2. Mijoz yuqorida 1.1. bandida ko'zda tutilgan harakatlarni amalga oshirar ekan, Xizmatni ulashga rozili ekanligi, mazkur Qoidalar bilan tanishib chiqqani va ularni, shuningdek Xizmatlar tariflari, Kontentni taqdim etish bo'yicha Kontent-Provayderlarning shartlarini qabul qilishini tasdiqlaydi.

2. Xizmat ko'rsatish tartibi

- 2.1. Qisqa raqamlar ro'yxati va taqdim etiladigan Kontent haqida ma'lumot www.humans.uz saytida ko'rsatiladi.
- 2.2. Xizmat Kontentni olish holati bo'yicha bir vaqtning o'zida taqdim etiladi. Xizmatni o'chirish talab etilmaydi.
- 2.3. Agar Shartnomada yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Mijozga xizmatlarni ko'rsatish to'xtatilgan yoki tugatilgan bo'lsa, ushbu Mijozga Xizmat ko'rsatilmaydi.
- 2.4. Humans Xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi va Kontent-Provayder tomonidan taqdim etiladigan Kontentning sifati va mazmuni uchun javobgar emas.
- 2.5. Mijoz Kontentni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, foyda olish, uchinchi shaxslarga sotish yoki boshqa tarzda tarqatish bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy maishiy maqsadlarda foydalanishga haqli ekanligi haqida xabardor qilinadi.
- 2.6. Agar Mijoz qurilmasida Kontentni takrorlash/taqdim etish formatida ishlash imkoni mavjud bo'lmasa, Humans tomonidan Xizmat taqdim etilishi kafolatlanmaydi va mazkur shart Humans tomonidan Xizmatning kerakli darajada ko'rsatilmaganini anglatmaydi.
- 2.7. Xalqaro roumingda Mijozga Xizmat taqdim etilishi kafolatlanmaydi. Xizmatdan xalqaro roumingda foydalanish imkoni mavjud bo'lsa, Xizmat ko'rsatilishida qo'shimcha ravishda xalqaro roumingda Kontentni yetkazish yoki aloqa xizmatlari uchun tariflar bo'yicha Kontent taqdim etish haqida so'rov bilan bog'liq to'lov undirilishi mumkin.
- 2.8. Qoidalarning mazkur bo'limida sanab o'tilgan shartlar Xizmatlar kerakli darajada ko'rsatilmaganini anglatmaydi va Xizmatlarga to'lov qilmaslik yoki ularni qaytadan hisoblash uchun asos bo'la olmaydi.
- 2.9. Xizmatlarni ko'rsatish uchun Humans uchinchi shaxslarni jalb qilishga haqli.

3. Xizmatlar narxi va ularni to'lash tartibi

- 3.1. Xizmat www.humans.uz saytida keltirilgan va Xizmat ko'rsatilishi vaqtida amal qiladigan tariflar bo'yicha bir vaqtning o'zida ko'rsatiladi.
- 3.2. Xizmat narxi Kontent turi va Kontent-Provayderning shartlariga bog'liq.
- 3.3. Xizmat narxi Mijozning Shaxsiy hisobvarag'idan yechib olinadi. Mablag'ni yechib olish tartibi Saytda joylashtirilgan Tariflar tavsifida belgilanadi.

4. Tomonlarning javobgarligi

- 4.1. Kontent-Provayder Kontent o'z tavsifiga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiqligi uchun javobgarlikni to'liq o'z zimmasiga oladi. Mijoz Buyruqning to'g'ri rasmiylashtirilishi, To'lov amalga oshirish uchun zarur bo'lgan rekvizitlarning (To'lov summasi, vazifasi va h.k.) to'g'ri ko'rsatilishi uchun javobgar hisoblanadi.
- 4.2. Humans Kontentni Kontent-Provayderning axborot resurslari va texnik vositalariga ulanish nuqtasidan Mijoz qurilmasigacha yetkazib berish, shuningdek Mijoz qurilmasidan Kontent-Provayderning texnik vositalariga ulanish nuqtasigacha Kontent olish uchun so'rovlarni yetkazish uchun javobgar.
- 4.3. Kontent-Provayder tomonidan xizmatlarning kerakli darajada ko'rsatilmagani, Kontent taqdim etilmagani yoki qoidalar buzilgan holda taqdim etilgani tufayli Mijozlarga yoki uchinchi shaxslarga yetkazilgan zarar uchun Humans javobgar emas.
- 4.4. Xizmat ko'rsatilishi bo'yicha da'volar mavjud bo'lsa, Mijoz Sayt yoki Ilova orqali Aloqa markaziga murojaat qiladi. Humans Mijozga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatda javob taqdim qiladi.

5. Xizmat ko'rsatilishini to'xtatish va Qoidalarni o'zgartirish

- 5.1. Ushbu Qoidalar Humans saytida e'lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Mazkur Qoidalar o'zgargani yoki ularning amal qilishi to'xtatilgani haqida Mijozlar Humans Sayti orqali xabardor qilinadi. Ushbu Qoidalar tegishli xabarnomada ko'rsatilgan vaqtdan boshlab o'zgartirilgan yoki to'xtatilgan hisoblanadi. Agar o'zgarishlar kuchga kirganidan

keyin Mijoz Xizmatdan yangi shartlar bo'yicha foydalanishda davom etsa, bunday o'zgarishlar Mijoz tomonidan qabul qilingan hisoblanadi. Ushbu Qoidalarining mazkur bandda ko'zda tutilgan tartibda o'zgarishi yoki to'xtatilishi Shartnomaning tegishli ravishda o'zgarganini anglatadi.

- 5.2. Ushbu Qoidalarining amal qilishi tugatilganida, Kontent-Provayder bilan shartnoma bekor qilinganida, shuningdek Mijoz tomonidan mazkur Qoidalar va (yoki) Shartnoma hamda Kontent-Provayder ofertasining nizomlaridagi talablar buzilganida, Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari buzilgani haqida shubha yuzaga kelganida Provayder suddan tashqari bir tomonlama tartibda Xizmatdan foydalanish imkonini taqdim etishdan bosh tortishi, Xizmatni o'chirishi (to'xtatishi) mumkin.
- 5.3. Shartnoma bekor qilinganida Xizmatning amal qilishi avtomatik tarzda to'xtatiladi.